Sherqulov Nodir Erkin o'g'li	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении....	1052
Гулноза Тохировна Самиева	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari	1057
Majidov Nizomjon	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari	1064
Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati	1075
Badalov Jamshid Jamolovich	
Foya solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budget tizimidagi ahamiyati.....	1080
Shirinov Sabir Erkinovich	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari	1084
Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана	1116
Икромова Ханифа Одиловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)GA MUVOFIQ MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH USULLARI

Sabirova Zaynab Qadambayevna

Renessans ta'lif universiteti, iqtisodiyot kafedrasи katta o'qituvchisi



Annotatsiya: Maqlolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tuzilgan hisobotda bo'lishi kerak bo'lgan ma'lumotlar, moliyaviy hisobotni tayyorlash usullari, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash boshqichlari keng yoritib berilgan va moliyaviy hisobotlarni tuzish usullari yuzasidan taklif-tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Xo'jalik yurituvchi subyektlar, BHMS (Buxgalteriya hisobining milliy standartlari), MHXS(Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari), aktiv, passiv, uzoq muddatli aktivlar, joriy majburiyatlar, jarayonlar, moliyaviy hisobot, usullar.

Abstract: In the article, the information that should be included in the report prepared in accordance with the international standards of financial reporting of economic entities, the methods of preparing financial reports, the heads of preparing financial reports, and proposals and recommendations regarding the methods of preparing financial reports are formulated.

Key words: Business entities, BHMS (National Accounting Standards), MHXS (International Financial Reporting Standards), assets, liabilities, long-term assets, current liabilities, processes, financial reporting, methods.

Аннотация: В статье представлены сведения, которые должны быть включены в отчет, подготовленный в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности хозяйствующих субъектов, методы подготовки финансовой отчетности, руководители подготовки финансовой отчетности, а также предложения и рекомендации относительно методов. подготовки финансовой отчетности сформулированы.

Ключевые слова: субъекты хозяйствования, BHMS (национальные стандарты бухгалтерского учета), MHXS (международные стандарты финансовой отчетности), активы, обязательства, долгосрочные активы, текущие обязательства, процессы, финансовая отчетность, методы.

KIRISH

Respublikamizda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tkazish bo'yicha tegishli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga dalil sifatida respublikamizda qabul qilingan qonunlar, davlat dasturlari, Prezident Farmonlari va qarorlarini asos qilib olishimiz mumkin. Bunga sabab xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirishdan iborat. Bu esa xalqaro standartlarga mos keladigan buxgalteriya hisobi bo'yicha milliy standartlarni ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish maqsadi bo'ldi. Hozirgi kunda bizning maqsadimiz korporativ boshqaruvga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlarida, tijorat aksidorlik banklarida, sug'urta tashkilotlarida va yirik soliq to'lovchi korxonalarida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzishdan iborat. Biz bunga xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish yoki buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o'tkazish orqali erishish mumkin.

Buxgalteriya hisobini MHXS asosida takomillashtirishning ayrim jihatlariga to'xtolib o'tamiz. Moliyaviy hisobotlarni BHMSdan MHXSga o'zgartirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish"ga muvofiq, "moliyaviy hisobotlar – bu korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini tizimli ravishda aks ettirishdir. Moliyaviy hisobotning maqsadi korxonaning moliyaviy ahvoli, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risida ma'lumot berishdir, bu esa iqtisodiy qarorlar qabul qilganda foydalanuvchilarning keng doirasi uchun foydali bo'ladi. Moliyaviy hisobotlar, shuningdek, kor-



xonani boshqarish – egalariga ishonib topshirilgan resurslarni boshqarish natijalarini ham ko'rsatadi. Ushbu maqsadga erishish uchun korxonaning moliyaviy hisobotida quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak:

- a) uning aktivlari haqida;
- b) uning majburiyatları haqida;
- d) o'ziga tegishli kapital haqida;
- e) uning daromadlari va xarajatlari, shu jumladan, foyda va zarar to'g'risida;
- f) egalaridan olingan omonatlar haqida, birga harakat qiladigan mulk egalariga taqsimlangan summalar to'g'risida;
- g) uning pul oqimi haqida.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash buxgalteriya hisobining ajralmas qismi ekanligini yodda tutish kerak. Shunga ko'ra, buxgalteriya hisobi obyektlarining ro'yxati moliyaviy hisobotda aks ettirilgan ma'lumotlarning mazmuniga mos kelmasligi mumkin. Shu bilan birga, "doimiy va uzlusiz" kabi buxgalteriya hisobi xususiyatlari va moliyaviy hisobotga nisbatan qo'llaniladigan "ma'lumotlarning foydali tomonlari" tushunchasi hisobga olinishi kerak.

ADABIYOTLAR SHARHI

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzishning o'ziga xos jihatlarini, usullarini, bosqichlarini o'rganish bo'yicha magistrantlar, tadqiqotchi olimlar, o'zlarining tadqiqotlarida, darslik va o'quv qo'llanmalarida hamda xalqaro konferensiyada fikr va mulohazalarini bildirib o'tganlar.

Shu jumladan, MHXS talablariga mos keladigan moliyaviy hisobot taqdim etishda nafaqat mos keluvchi standartga murojaat qilish, balki MHXS 1 da ularga havola bo'lgan boshqa MHXS talablariga ham alohida e'tibor qaratish hamda jamiyatning moliyaviy hisobotlarini shakllantirish va taqdim etishga nisbatan ularni qo'llash choralarini ham hisobga olish zarur. 1-bosqichda hisobothi o'zgartirishning maqsadini ifodalab olish, o'zgartirish jarayonlarini amalga oshirish ko'zdautilgan davrni va MHXSga o'tish sanasini, shuningdek, jamiyatning moliyaviy hisobotini shakllantiradigan valyutani, hisobot tuziladigan tilni va o'rganish usulini belgilash lozim¹.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning sabablari har xil bo'lishi mumkin, ammo bunday qarorning asosiy maqsadi muayyan imtiyozlarga ega chiqishdir. Bunday imtiyozlar orasida past foizli kreditlar olish bilan bir qatorda xorijiy fond bozoriga kirish yoki xorijiy kompaniyalar bilan import-eksport munosabatlarini rivojlantirish kabilarni eslab o'tishimiz darkor².

MHXS va BHMS asosida tuziladigan hisobotning asosiy farqli jihatni, "Ulushli qatnashish hisobi usuli bo'yicha boshqa yalpi daromadda uyushgan yoki hamkor tashkilotlarning ulushi" va "Nazorat qilinmaydigan ulushli qatnashish va bosh kompaniya ta'sischilariga taaluqli foyda yoki zarar va jami yalpi daromad" moddalari milliy amaloyotda mavjud emas. Bu esa hisobotning konsolidasiyasiga emas, balki oddiy hisobotni shakllantirishga olib keladi³.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tuzishga emas, balki foydani belgilangan qoidalar asosida boshqarish masalasi nazarda utilgan.

METODOLOGIYA

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tuzish usullarini o'rganishda induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, tizimli yondashuv, mantiqiy fikrlash, taqqoslash usullaridan foydalanigan holda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga harakat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlashning ikkita asosiy usuli mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- a) BHMS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni MHXS asosida transformasiya qilish;
- b) Milliy hisob tizimi bilan birga MHXSga muvofiq parallel hisob tizimini yuritish.

1 Muzrapova Sh. S., Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi.// "Ta'lim fidoyilar", elektron-ilmiy jurnali, 2022yil may, WWW. REANDPUB. COM, 225-234 b.

2 Mamatkulov A. T., Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bosqichlari va uslublari.// "Talqin va tadqiqotlar", ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil, №18, 59-62 b.

3 Norbekov D. E., Toirova N. Sh. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot: milliy va xalqaro tajriba.// "Science and Education", scientific journal/impact factor 3.848 (sjif), January 2023, Volume 4 Issue 1, 1063-1069 b.



Moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq tayyorlash usullarini quyidagi 1-rasmda ko'rish mumkin:

Moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash usullari

Transformasiya qilish

buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ga muvofiq buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tahlil qilib, ularni MHXSga o'zgartirish

Parallel hisob tizimini yuritish

buxgalteriya hisobining moliyaviy hisobot ma'lumotlarini yaratishni ikkita usuli mavjud bo'lib, dasturiy ta'minot shaklini talab qiladi, shunda MHXS va BHMSda ikki xil hisobotlar tayyorlanadi

To'liq transformasiya qilish

MHXS va BHXS o'rtaсидаги aniqlangan farqlarni bartaraf etish uchun turli xil tuzatish yozuvlari kiritiladi

To'liq parallel hisob tizimini yuritish

Buxgalteriya dasturidan barcha moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarini hisob-kitob qilish uchun foydalananadigan kompaniyalar javob beradi

Giperinflyasiyani hisoblashni to'liq transformasiya qilish

To'liq o'zgartirish paytida amalga oshirilgan barcha o'zgarishlarni ta'minlaydi va zaruriy tuzatishlarni kiritgan holda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS)ga muvofiq moliyaviy hisobotlarni milliy valyutada taqdim etadi

Bosqichma-bosqich parallel hisob tizimini yuritish

Qo'lda yozuvlarni yuritadigan kompiniyalar uchun javob beradi va BHXS bo'yicha ma'lumotni bosqichma-bosqich taqdim etishga o'tish va shu bilan birga kompyuterning buxgalteriya tizimini qo'llab-quvvatlash

Ko'rsatkichlarni xorijiy valyutaga almashtirish talablarini hisobga olgan holda to'liq transformasiya qilish

BHXSga muvofiq taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar milliy valyutada barqaror xorijiy valyutaga aylantiriladi

1-rasm: Moliyaviy hisobotni MHXSga muvifiq tayyorlash usullari

MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning ikki usulini taqqoslash orqali ularning afzalliklarini va kamchiliklarini hamda qaysi usuldan foydalashish bizga qulaylik olib kelishini ko'rishimiz mumkin.



MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonini uchta qismga bo'lish mumkin:

1. Korxonaning buxgalteriya ma'lumotlarini (dastlabki hujjatlar va buxgalteriya registrlari) tahlil qilish, sinov balanslarini tayyorlash.
2. MHXSga muvofiq jami aylanma qoldiqlarini va o'zgartirilgan buxgalteriya yozuvlarini qayta ko'rib chiqish va buxgalteriya balansini tayyorlash.
3. MHXS talablariga muvofiq kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash.

Hisobotlarni transformasiya qilishning shakllangan bosqichlariga asoslangan holda balansni tuzish jarayoni quydigicha bo'ladi. Hisobot davri boshida schyotlar rejasining sintetik hisobvaraqlari bo'yicha aylanma varaqasi asosida sinov balansi shakllantiriladi, so'ngra tuzatishlar kiritiladi va hisobot davri boshidagi birinchi o'zgartirilgan balans olinadi. Keyin qayta tasniflash yozuvlari to'ldirilgandan so'ng, hisobot davri boshidagi MHXSga muvofiq moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tuziladi. Xuddi shunday schyotlar rejasining sintetik hisoblari bo'yicha varaqasi ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, hisobot davri oxirida tuziladi va tegishli tuzatish hamda qayta tasniflash yozuvlari kiritilgandan so'ng, hisobot davri oxirida o'zgartirilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga ega bo'lamiz va keyin hisobot davri oxiridagi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot paydo bo'ladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga ko'ra, hisobotning oxirgi varianti hisobot davri boshida va oxirida tayyorlanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni yakuniy variantga o'tkazish uchun hisobot moddalari guruhlanadi. Xususan, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda "Kassa", "Joriy aktivlarning hisob-kitob varag'i va valyuta hisobvarag'i" kabi moddalari "Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari" moddasida guruhlanadi. "Debitorlik qarzlar" va "Boshqa debitorlik qarzlar" moddalari shubhali qarzlar bo'yicha zaxiralar bilan kamroq ta'minlanganlikni hisobga olmaganda "Debitorlik qarzlar" moddasiga; "Hisoblangan summalar bo'yicha xodimlarning qarzdorligi" va "Berilgan ssudalar bo'yicha xodimlarning qarzlar" moddalari – qisqa muddatli debitorlik qarzlariga; "Qo'shilgan qiymat solig'i, daromad solig'i va boshqalar uchun debitorlik qarzlar" – soliqlar bo'yicha debitorlik qarzlariga; "Xom ashyo va materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, tugallanmagan ishlari va tayyor mahsulotlar" – "Tovar moddiy zaxiralar" moddasiga; "Inventarizasiya uchun ol-dindan to'langan xaratjatlar va kechiktirilgan xaratjatlar"- "Oldindan to'langan xaratjatlar" moddasiga guruhlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar – binolar va inshootlar, ishlab chiqarish uskunalar, komp'yuterlar, transport vositalari, asosiy vositalar toifalari bo'yicha tegishli amortizasiyani olib tashlagan holda – "Asosiy vositalarning sof qiymati" moddasiga kiritilgan; "Uzoq muddatli moliyaviy aktivlar", "Sotish mumkin bo'lgan moliyaviy aktivlar" – uzoq muddatli debitorlik qarzlarida guruhlanadi. Lisenziyalar, tovar belgilari amortizasiyani olib tashlagan holda "Nomoddiy aktivlarning sof qiymati" moddasini tashkil etadi.

Shunga ko'ra, uzoq muddatli aktivlar uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda xulosalar ko'rsatiladi. Masalan, uzoq muddatli aktivlarning yakuniy xulosasi bu maxsus aktivlarning sof qiymati, uzoq muddatli debitorlik qarzlar va nomoddiy aktivlarning sof qiymati.

Joriy majburiyatlar – ish, xizmatlar va inventarizasiya buyumlar uchun kreditorlik qarzlar – "Kreditorlik qarzlar" moddasida guruhlangan; xaridorlardan olingan avanslar va boshqalar – "Olingan avanslar" moddasida. "To'lanishi lozim bo'lgan soliq" moddasida – daromad solig'i summalar, budgetdan tashqari jamg'armalarga hisoblangan badallar, xodimlarga hisoblangan ish haqi, ushbu moddaga qo'shilgan foizlar – "Hisoblangan majburiyatlar" moddasida; uzoq muddatli majburiyatlar – "Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar" mmoddasida; o'z ustav kapitali – ustav kapitaliga, qo'shilgan kapitalga, hisobot davrining taqsimlanmagan foyda (zarar) va o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda (zarar)ga guruhlanadi. Shunga ko'ra, joriy va uzoq muddatli majburiyatlar va kapitalning natijalari umumlashtiriladi.

Mazkur taklif etilayotgan taqqoslama ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, milliy standart qoidalarida bir vaqtning o'zida ikkita maqsadni o'z ichiga olmoqda (molivaviy hisobotlarni tayyorlash usullari va uning vazifalariga). Bu esa e'tiborni ko'proq moliyaviy hisobotlarni tuzishga qaratib, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashning zaruriyati va standartlardagi ta'riflar hamda tarkibi haqida kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyati bo'lmaydi. Agar xalqaro standart talablariga muvofiq hisobot shakllarini tayyorlashni samarali usullari ishlab chiqilsa, milliy standart qoidalarini xalqaro standartga o'zgartirishda katta samaradorlikka erishish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tezroq amaliyotga joriy etish orqali xorijiy investorlarni zarur, sifatli va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash va ularning ko'lamini kengayishni ta'minlaydi. Bu esa faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro dara-



jada tan olinishi va birinchi navbatda xorijiy investorlarga tushunarli bo'lishi bilan birga, xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shularni inobatga olib, xulosa qiladigan bo'lsak, xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishni takomillashtirish, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritishdagi muammolar va ularni yechish yo'llarini muhokama qilgan holda, Respublikamizda barcha yirik tashkilotlar, shu jumladan, aksiyadorlik kompaniyalari, sug'urta kompaniyalari, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar moliyaviy hisobotlarini MHXS asosida tuzib, taqdim etishlari kerak. Shuning uchun yirik tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini MHXSga muvofiq tuzishi yoki BHMS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida tayyorlash zarur bo'ladi. Bu jarayon esa uzoq jarayon bo'lib, buxgalteriya hisobini yuritish tizimini qayta tuzish ham, buxgalteriya hisobi sohasi mutaxassisilarini qayta tayyorlash ham katta kuch talab qiladi.

Foydalaniqan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-tonli qarori. –2020-yil 24-fevral. <https://lex.uz/docs/4746047>.
2. Muzrapova Sh. S., Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi.// "Ta'lif fidoyilari", elektron-ilmiy jurnal, 2022yil may, WWW. REANDPUB. COM, –225-234 b.
3. Mamatkulov A. T., Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bosqichlari va uslublari.// "Talqin va tadqiqotlar", ilmiy-uslubiy jurnal, –2023-yil, №18, 59-62 b.
4. Norbekov D. E., Toirova N. Sh. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot: milliy va xalqaro tajriba.// "Science and Education", scientific journal/impact factor 3.848 (sjif), January 2023, Volume 4 Issue 1, 1063-1069 b.
5. B. O. Бердичевская. Трансформация финансовой отчетности в МСФО//учебное пособие. Ярославль. ЯрГУ, –2017 г, 86, 91, 92.

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

